



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-oktabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 605 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 505 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 20 591,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 109,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 745,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 846,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 103,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon Viloyati	20 591,6	109,2
Andijon sh.	5 761,6	109,8
Xonobod sh.	152,3	114,7
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	1 269,9	104,9
Andijon	1 628,4	110,0
Baliqchi	1 681,9	110,3
Bo'ston	292,9	109,0
Buloqboshi	455,1	112,6
Jalaquduq	457,1	109,6
Izboskan	620,2	113,8
Ulug'nor	319,5	108,5
Qo'rg'ontep'a	806,3	110,4
Asaka	1 755,0	111,1
Marhamat	671,9	108,7
Shahrixon	1 965,9	108,8
Paxtaobod	740,7	105,9
Xo'jaobod	1 000,9	102,6


2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,8 %), Xonobod shahri (14,7 %), Izboskan (13,8 %), Buloqboshi (12,6 %), Asaka (11,1 %) Qo'rg'ontep'a (10,4 %) va Baliqchi (10,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-oktabr)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 28,0 % bilan 5 761,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 152,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 18 846,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 7,9 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,5 % ni tashkil etdi.


108,9	Asaka
109,2	Marhamat
109,6	Andijon
110,9	Bo'ston
111,1	Qo'rg'ontep'a
112,4	Buloqboshi
112,5	Jalaquduq
115,4	Xonobod sh.

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 25,0 % ga o'sdi va 1 745,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,5 % ulushiga to'g'ri keldi.

122,6	Buloqboshi
123,1	Andijon sh.
128,1	Paxtaobod
131,0	Ulug'nor
154,4	Xo'jaobod
170,8	Baliqchi
177,1	Asaka
393,8	Izboskan
b.	


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontep'a (98,9 %), Shahrixon (98,5 %), Marhamat (98,0 %) va Buloqboshi (97,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 8,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,8 %), Xonobod shahri (8,1 %) Izboskan (9,0 %) va Jalaquduq (6,6 %) tumanlarida kuzatildi.



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



Andijon sh.	11 869,9	Marhamat	3 579,4
Xonobod sh.	3 304,6	Shahrixon	6 012,0
Oltinko'l	6 580,0	Paxtaobod	3 523,8
Andijon	5 642,5	Xo'jaobod	8 278,3
Baliqchi	7 736,6		
Bo'ston	3 725,9		
Buloqboshi	2 951,6		
Jalaquduq	2 284,4		
Izboskan	2 411,5		
Ulug'nor	4 991,5		
Qo'rg'ontep'a	3 477,0		
Asaka	4 906,3		

2024- yilning yanvar-oktabr oyilarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 020,9 ming. so'm (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan (106,9 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (11 869,9 ming so'm), Xo'jaobod (8 278,3 ming so'm) va Baliqchi (7 736,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-oktabr), mlrd. so'mda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 103,2	113,2
Andijon sh.	732,5	118,7
Xonobod sh.	13,5	232,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	51,2	115,9
Andijon	72,7	93,5
Baliqchi	161,3	98,5
Bo'ston	27,3	110,9
Buloqboshi	116,2	124,1
Jalaquduq	88,2	100,3
Izboskan	47,1	132,5
Ulug'nor	89,8	100,0
Qo'rg'ontepa	224,9	125,6
Asaka	403,2	145,8
Marhamat	162,9	110,6
Shahrixon	590,1	107,3
Paxtaobod	208,9	88,5
Xo'jaobod	113,3	100,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-oktabr)



Andijon viloyati bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 103,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariiga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 397,8 mlrd. so'mni (118,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 705,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (124,8 %).


2024- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi 1 397,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (545,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 705,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 429,7 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 251,2 mlrd. so'mni, otlar – 15,1 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 9,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 276 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 274 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	9 704,7	112,1
Andijon sh.	181,8	111,6
Xonobod sh.	3,4	106,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	18,0	109,8
Andijon	27,7	107,2
Baliqchi	4,8	108,3
Bo'ston	2,0	108,2
Buloqboshi	3,7	108,6
Jalaquduq	4,8	107,1
Izboskan	11,8	109,6
Ulug'nor	5,7	108,6
Qo'rg'ontep'a	16,8	108,6
Asaka	15,9	108,9
Marhamat	9,0	110,2
Shahrixon	48,7	118,8
Paxtaobod	12,6	107,9
Xo'jaobod	7,9	113,3

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 704,7 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Andijon viloyati	5 362,9	100,0
Andijon sh.	3 721,2	69,4
Xonobod sh.	0,67	0,01
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	428,0	8,0
Andijon	126,9	2,4
Baliqchi	19,8	0,4
Bo'ston	0,74	0,01
Buloqboshi	0,8	0,01
Jalaquduq	2,0	0,0
Izboskan	10,4	0,2
Ulug'nor	0,78	0,01
Qo'rg'ontep'a	5,5	0,1
Asaka	486,6	9,1
Marhamat	5,0	0,1
Shahrixon	14,9	0,3
Paxtaobod	1,1	0,0
Xo'jaobod	538,5	10,0

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (3 721,2 mlrd. so'm), Oltinko'l (428,0 mlrd. so'm), Asaka (486,6 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (538,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash* va *texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 5 362,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 150,0 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 554,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 54,8 % ga o'sdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 2 808,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 45,9 % oshdi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 471,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 8 916,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 730 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 699 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (19,6 m.), Marhamat (3,6 m.) va Shahrixon (2,8 m.), tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	9 471,2	110,6
Andijon sh.	3 397,6	114,2
Xonobod sh.	83,4	113,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	262,1	110,1
Andijon	561,7	96,6
Baliqchi	568,4	110,6
Bo'ston	54,2	107,0
Buloqboshi	119,0	113,2
Jalaquduq	62,0	104,9
Izboskan	296,5	110,6
Ulug'nor	110,1	112,1
Qo'rg'ontep'a	200,1	115,0
Asaka	212,6	102,0
Marhamat	83,6	133,8
Shahrixon	744,5	104,7
Paxtaobod	120,6	111,3
Xo'jaobod	184,8	112,5